SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ MAJBURIYATLARI PAYDO BO‘LISHINING NAZARIY ASOSLARI

Soipov Boburmirzo Nosirjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi xodimi
E-mail: b.soipov@gmail.com

Qabul qilindi: 11.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 12.10.2025
Tasdiqlandi: 13.10.2025

Kalit so‘zlar:
soliq to‘lovchi, soliq majburiyati, soliq qonunchiligi, soliq munosabatlari, huquqiy asoslar, iqtisodiy asoslar, soliq tizimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari paydo bo‘lishining nazariy asoslari atroflicha tahlil qilinadi. Soliq majburiyatining huquqiy va iqtisodiy jihatlari, soliq munosabatlarining shakllanishi, soliq to‘lovchining huquq va majburiyatlari hamda majburiyatlarning yuzaga kelish shartlari yoritilgan. Shuningdek, soliq tizimining samarali faoliyati uchun majburiyatlarni aniqlash va tartibga solishning muhimligi ta’kidlanadi. Maqola soliq qonunchiligini takomillashtirishga oid tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Krish. Soliqlar xazina siyosatining bir qismi sifatida namoyon bo‘lishini P.Samuelson aniq ifodalab bergan. K.Makkonnell bilan S.Bryuning xuddi shunga o‘xshash nuqtai nazari ularning “Ekonomiks” (Kempbell R. Makkonnell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: prinsipi, problemi i politika. Per. 16-go angl. izd. – M.: “INFRA”, 2006. – 940 b.) nomli asarida belgilab berilgan, shu bilan birga amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan xazina siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hal etiladigan vazifalaridan kelib chiqib, ham rag‘batlantiruvchi siyosat, ham to‘sqinlik qiluvchi siyosat sifatida qaraladi. “Xazina siyosatining asosiy maqsadi, - deb yozishadi ular, - ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tartibida rag‘batlantiruvchi xazina siyosati to‘g‘risidagi masala paydo bo‘ladi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1-davlat xarajatlarining ko‘payishi, yoki 2 - soliqlarning pasayishi, yoxud 1 va 2 ni birga qo‘shib olib borish va aksincha, agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo‘lgan inflyatsiya sodir bo‘lsa, bunga to‘sqinlik qiluvchi xazina siyosati mos keladi. To‘sqinlik qiluvchi xazina siyosati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1 - hukumat xarajatlarining kamayishi, yoki 2 - soliqlarning ko‘payishi, yoxud 1 va 2 ning birga qo‘shib olib borilishi. Xazina siyosati, basharti iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo‘lsa, hukumat byudjetining ijobiy qoldig‘iga tayanishi lozim” (K.Makkonel, S.Bryu «Ekonomiks» M. 1972 y. 249-str.). Jumladan, ingliz faylasufi F.Bekonning “xalqning roziligi bilan undiriladigan soliqlar uning mag‘rurligini pasaytirmaydi. Xalqning roziligi bilan

yoki uning roziligisiz yig‘im hamyon uchun farqsiz bo‘lishi mumkin, ammo xalq ruhiyatiga ta’siri bir xil emas” (http://filosf.historis.ru/books/item/f00/s00/z0000455/index/shtml/), degan fikrlarini zamonaviy talqinidan tushunish mumkinki, agar soliq va boshqa majburiy to‘lovlar xalqni roziligisiz joriy qilingan bo‘lsa, soliq qarzdorligini paydo bo‘lishiga yoki umuman soliqdan qochishga olib keladi.

U.Pettining fikrlariga ko‘ra, “... meyordan ortiqcha soliq aholining hatto tabiiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan predmetlarga bo‘lgan haddan ziyod va chidab bo‘lmaydigan zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday soliq kishilarni o‘g‘rilik va firibgarlikka majbur etadi” (Antologiya ekonomicheskoy klassiki. V 2-x tomax. T. I. (U.Petti, A.Smit, D.Rikardo) Pred. I.A.Stolyarovayu – M.: MP “EKONOV”, 1991. - s. 27.). Olimning fikridan kelib chiqqan holda bu kabi ortiqcha soliq meyori soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini va soliq bo‘yicha qarzdorliklarni vujudga keltirishga sabab bo‘lishi muqarrar.

I.Niyazmetovning fikricha, “Davlat o‘z xazinasi daromadlarini maksimallashtirishga harakat qilsa, soliq to‘lovchilar aksincha o‘z soliq majburiyatlarini minimallashtirishga, soliq yuki ularning imkoniyatlarini cheklab qo‘ymasligiga urinadilar. Soliq undirishda davlatning “adolatliligi” susayib borgani sayin, soliq to‘lovchilarning “rostgo‘yligi” ham kamayib boraveradi” (Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. –Toshkent, 2016. - 9 b.). O‘z navbatida, soliqlarni undirish mexanizmidagi, uni tartibga soluvchi soliqqa oid qonun hujjatlaridagi nomuvofiqliklar, ziddiyatlar, noaniqliklar soliq to‘lovchilar tomonidan majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishida faolligini hamda mazkur qonunlarga bo‘lgan ishonchlarini pasaytiradi.

Soliqqa tortishning murakkabligiga asosiy sabablaridan biri sifatida, U.Petti, xalqning soliq to‘lashni istamasligi, deb hisoblaydi. Bu esa, soliqlarni undirishda davlat tomonidan ortiqcha sarf-xarajatlar va qattiq jazo choralari qo‘llanilishiga olib keladi (Afanasev V.S. Vozniknovenie klassicheskoy burjuaznoy politicheskoy ekonomii (Uilyam Petti). – M.:Sosekgiz, 1960.– S.20-21.).

Soliqqa tortishni optimallashtirishning ilmiy-nazariy asoslari shakllanishida A.Smit soliq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish soliqqa tortishni takomillashtirishga xizmat qilgan quyidagi to‘rtta “oltin tamoyil”ni ilgari surgan: adolat (tenglik), aniqliq, qulaylik va tejamlilik (arzonlilik) (The Wealth of Nations, Book V, Shapter II, Part II. (An yelestronis slassiss series publisation).

Zamonaviy sharoitda O‘zbekiston soliq tizimi samaradorligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, bu borada I.Niyazmetov tomonidan soliq tizimining samaradorligi soliq tizimiga qo‘yiladigan asosiy fundamental talablardan biri ekanligi ilmiy asoslanib, ikki muhim jihati keltirildi (Niyazmetov I.M. O‘zbekiston soliq tizimi: muammolar va takomillashtirish

yo‘llari. MonografiY. – Toshkent: “Moliya”, 2017. - 195 b.):

birinchidan, soliq undirish yoki soliqqa tortish jarayonlari davlat va soliq to‘lovchilar uchun imkon qadar arzon, ya’ni kam xarajat bo‘lishi hamda ortiqcha ovoragarchiliklarga olib kelmasligi darkor;

ikkinchidan, davlat soliq mexanizmi vositasida iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni avtomatik tarzda samarali tartibga solib borish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. YA’ni, soliq vositasida davlat moliyaviy mablag‘lar, ishlab chiqarish omillari hamda mehnat va tabiiy resurslarni samarali boshqara olishi lozim.

Chernik (Chernika D. Nalogi: ucheb. posobie / Pod red.– 2-ye. INFRA. 2003. Str. 486), Aronov va Kashinlar (Aronov A va Kashin V Nalogi i nalogooblojenie M. 2007.: Magistr. Str. 178) o‘zlarining tadqiqotlarida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o‘rgangan holda soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to‘lovchi o‘z xohishi bilan soliq to‘lash majburiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasida qo‘llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

I.Gorskiy soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati bo‘yicha Rossiya misolida tadqiqotlar olib borgan (Gorskiy I. Nalogi v ekonomicheskoy strategii gosudarstva // Finansi. – M., 2001 Str. 36-39.). Bunda:

- soliqlarning muddatida to‘lanishi yoki oldindan to‘lab qo‘yilishi;
- soliq xizmati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subektlarni kameral nazorat qilish natijasida banklardan tashqari aylanmalarning bo‘lmasligi;
- daromadlarni yashirish holatlarining yo‘qligi kabi holatlari aniqlanganda quyidagi:

a) xo‘jalik yurituvchi subektlar tomonidan yillik to‘lagan soliqlarining 3 foizdan 7 foizgacha bo‘lgan qismini keyingi to‘lovlari hisobiga olish;

b) yil yakuni bilan o‘tkaziladigan tadbirlarda eng namunali (vatanparvar) soliq to‘lovchi sertifikatining berilishi;

v) ularning faoliyatini davriy tekshirmaslik bo‘yicha yengilliklar berilgan.

Shu o‘rinda, soliq qarzi muddatini faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan soliq to‘lovchilarga qo‘shimcha imkoniyatlar berilishi mavjud qarzdorlikni umidli bo‘lishligiga, ya’ni to‘lov qobiliyatining tiklanishiga va pirovardida byudjetga undirilishiga erishish mumkin.

I.Blank tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yuqoridagi kabi yengilliklar bo‘lmas ekan korxonalarning o‘zaro hisob kitoblari va soliqlarning muddatida undirilishi, yangi korxonalarning tashkil etilishi va ularning undirilishidagi muammolarning yechimi yo‘qolib borilishi hamda mazkur holatlarda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning muddatida to‘lanmasligini va quyidagi omillar

ta’sirida soliq qarzlarining vujudga kelishi nazariy jihatdan asoslangan.

Soliq stavkalarining yuqoriligi natijasida moliyaviy munosabatda bo‘lgan xo‘jalik subektlari tomonidan to‘lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida:

soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorliklarning oshib ketishi;

moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto‘g‘ri boshqarish;

xo‘jalik subektlari mahsulotlariga (bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar) iste’mol talabining keskin o‘zgarishi;

xo‘jalik subektlari mahsulotlarining (bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligini aniqlagan (Blank I.A. “Finansoviy menejment”, Nika-Sentr B.195. Kiev. 2005).

A.Smitning fikriga ko‘ra soliqlarni to‘lash uchun shaxs o‘sha to‘lovni qaerdan olishga ega bo‘lishi kerak. Daromadlarga ega bo‘lgan to‘lashi va barcha daromadlar 3 manbadan paydo bo‘lishi mumkin. Bular yer, kapital va mehnatdan, qolgan barcha daromad turlari ikkilamchi va oxir oqibat yuqorida nomi keltirilgan 3 turdan shakllanadi (Mayburd YE.M. Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy misli. – M.: Delo, Vitapress. 1996. – B.544.). Buning mazmuni shundan iboratki, amaliyotda u yoki bu soliqni joriy etish va uni undirish natijasida byudjetga borib tushgan mablag‘lardan amaldagi mablag‘larning hajmi ancha katta bo‘lgan summani tashkil etishi mumkin.

A.Isaev davlat qarzlarini boshqarish bilan bog‘liq ilmiy tahlilida davlat o‘z qarzlarini qoplash va daromadini kengaytirishi uchun aholining imkoniyatidan kelib chiqqan holda soliq tizimini rivojlantirishni taklif etadi (Isaev A.A. Ocherk teorii i politiki nalogov. – M.: YurInfoR-Press, 2004. – S.270.). Fikrimizcha, bunga eng avvalo soliq majburiyatini bajarishda soliq to‘lovchilarning to‘lov intizomini shakllantirishdagi madaniyatini yuksaltirish orqali erishish mumkin.

A.Laffer soliqqa tortish meyori xususidagi nazariyani ishlab chiqib, soliq stavkalarining ma’lum miqdorgacha oshib borishi byudjet daromadlarining ko‘payishiga xizmat qiladi, lekin soliq stavkalari meyoridan oshib ketsa, byudjet daromadlari aksincha kamayib boradi, degan xulosaga kelgan (Barulin S.V., Beketova O.N. Lafferovi effekti v ekonomike sovremennoy Rossii // Finansi. – M., 2003. - №4. – S.34-37.). Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, soliq stavkalari meyoridan oshib borishi soliq qarzdorliklarining yuzaga kelishi va ularning ortib borishiga ham sabab bo‘ladi.

Bu borada I.Niyazmetov soliq stavkalari meyoridan oshib ketsa byudjet daromadlari aksincha kamayib boradi degan xulosaga kelgan (Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. –Toshkent, 2016. B.141.). Albatta, soliq stavkalarining meyoridan oshirilishi o‘z navbatida xo‘jalik yurituvchi subektlar tomonidan yaratilgan soliq solish bazasining ham kamayib borishiga olib keladi.

Soliqlarning joriy etilishi va ularning aniq miqdorlari haqida fikr yuritar ekanmiz, bu borada A.Smit ilgari surgan nazariyaga tayangan holda daromadlarning qaerdan yoki nima hisobidan olinishini inobatga olib, A.Laffer egri chizig‘ida optimal nuqtani aniqlagan holda soliq stavkani pasaytirish orqali soliq solish bazasini kengaytirish hisobiga soliqlarni to‘lash uchun qulay mexanizm yaratish orqali majburiyatlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda bajarilishini ta’minlash maqsadida qo‘shimcha kafolatlarni joriy qilish soliq qarzdorligining ma’lum miqdorda kamayishiga olib keladi, deb hisoblaymiz.

T.Andreeva tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullar tahlil qilinib, soliq to‘lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan (Andreeva T.S. Reformirovanie nalogovoy sistemi Latvii. Menedjment i marketing: opit i problemi: sbornik nauchnix trudov. Pod obshey redaksiey d.e.n., prof. I.L. Akulicha. Minsk: A.N. Varaksin, 2017. S. 8-15.).

G.Morozovaning fikriga ko‘ra, soliq madaniyati – mamlakat madaniyatining umummilliy qismi bo‘lib, soliq tizimida davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro harakatning bir-biriga tor doirada bog‘liqligidir. Soliq savodxonligi va madaniyatining asosiy elementi, bu tizimli ta’lim olish, rivojlanish va nazorat qilishdan tashkil etadigan soliq to‘lovchilarning axloqiy va moliyaviy qobiliyati hamda imkoniyatlari hisoblanadi (Morozova G.V. Povishenie nalogovoy kulturi naseleniya kak sposob borbi s nalogovimi pravonarusheniyami // Rossiyskoe predprinimatelstvo. – 2009. №3–2 (131). – S. 118–123.). Soliq intizomini shakllantirish va yuksaltirishda birinchi navbatda soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan soliqlarni qanday maqsadlarga sarflanishini soliq to‘lovchilarga yanada chuqurroq his ettirish darkor.

A.Kuznesovning (Kuznesov A.L. Nalogovaya politika i nalogovie organi: realnoe sostoyanie, problemi, perspektivi [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: http://vasilievaa.narod.ru/zhurnal/.) fikriga ko‘ra, soliq to‘lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib yetmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo‘lmaydi. Bizningcha, buni nafaqat soliq organlari xodimlari, balki soliq to‘lovchilar ham tushunib yetishi va bu boradagi soliq organlari xodimlari o‘rni beqiyosdir.

Soliq qarzdorligining kelib chiqishdagi asosiy omillardan biri, bu soliq to‘lovchilarni o‘z majburiyatlarini umuman yoki yetarlicha bilmasligi oqibati deyish mumkin. Bu borada xorijiy mamlakatlar, jumladan Shvesiyada soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha quyidagi iborani ta’kidlash joiz deb hisoblaymiz. Ular “Biz nega soliqlarni to‘lamasligimiz kerak?” - degan savolni o‘zlariga berishar ekan, bundan farqli o‘laroq aksariyat soliq to‘lovchilarimiz “Biz nega soliq to‘lashimiz kerak?” degan savolni berishadi. Aksariyat shvedlar

soliqlarni muqarrar yovuzlik sifatida emas, balki ularning bevosita vazifasi deb bilishadi. Ular soliq yig‘ish yo‘llar yoki maktablarni ta’mirlash, nafaqaxo‘rlar va dori-darmonlarga sarflanishini va faqat maqsadlar uchun ishlatilishini tushunadilar. Shvedlar o‘zlarining yaxshi soliq to‘lovchilari ekanliklaridan faxrlanishadi. Bundan tashqari, mamlakatda kompaniyalarning moliyaviy va buxgalteriya hujjatlaridan ochiq foydalanish imkoniyati mavjud: biror narsani yashirishga urinish befoyda. Soliq to‘lovchining ismini yoki kompaniyaning nomini www.allabolag.se saytiga kiritish kifoya va uning qancha daromad olgani va qancha soliq to‘laganini ko‘rish mumkin (https://ru.sweden.se/ljudi/nalogi-v-shvesii-lyubov-s-obyazatelstvami/). Bu holatni ikki xil talqin qilish mumkin: birinchisi soliq to‘lovchining o‘z majburiyatlarini bilmasligi bo‘lsa, ikkinchisi bilib turib amal qilmasligidir.

D.Kasimov (Kasimov D.O. Institusionalnie osnovi formirovaniya i razvitiya nalogovoy kulturi: Dis. … kand. ekon. nauk: 08.00.10: utv. 13.06.2012. – M., - 168 s.) ham ommaviy soliqlardan bo‘yin tovlashning asosiy sabablari quyidagilardan iboratligini qayd etgan:

- soliq qonunchiligining nobarqarorligi;
- mamlakat aholisiga maslahatlar va axborotlar berish tizimining yetarli emasligi;
- soliq organlariga nisbatan fuqarolarning ishonchsizligi;
- soliq munosabatlari subektlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy mas’uliyatdagi muammolar.

D.Bondarev fikriga ko‘ra, soliq madaniyatining paydo bo‘lishi sinov va xatolar usuli yo‘li orqali bozor iqtisodiyoti bilan parallel amalga oshirilgan. Soliqlarni to‘lash bo‘yicha asosiy targ‘ibot ishlari ma’rifatli emas, balki soliqlar to‘lanmagan taqdirda jinoiy javobgarlik siquvi bilan tahdid xarakterga ega (Bondarev D.M. Rol nalogovoy kulturi obshestva v formirovanii ekonomicheskoy politiki. Belorusskiy gosudarstvenniy ekonomicheskiy universitet. Biblioteka. Belarus State Yesonomis University. Library.).

O.Kalinkinning (Kalinkin O.G. Sovershenstvovanie nalogovogo administrirovaniya v interesax sotsialno- ekonomicheskogo uskoreniya RF. Avtoreferat dissertatsii k.e.n.- M.: RAGS pri Prezidente RF 2010.) fikriga ko‘ra, soliq madaniyati darajasini oshirishga yo‘naltirilgan soliqqa oid qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish kerak, biroq bu yagona ham, murakkab ham emasligini bildirgan. Albatta, birinchi navbatda soliqqa oid qonun hujjatlarini, xususan soliq ma’murchiligiga oid qonun hujjatlarini hamda lokal normativ-huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirish zarur.

Soliq to‘lovchilarni soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida oxirgi vaqtlarda soliq organini insofli soliq to‘lovchining ishonchli hamkoriga aylantirishga oid qator meyoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va shu bilan birga qoidabuzarlik holatlarni bartaraf etishdan oldin uni kelib

chiqishini oldini olishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirish zarurdir.

SH.To‘raev «xo‘jalik yurituvchi subektlarning soliq yukini davlat byudjetiga to‘langan barcha soliqlar va ajratmalar miqdorining xo‘jalik subektining qo‘shilgan qiymati miqdoriga nisbati orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir» (To‘raev SH. «Xo‘jalik subektlarining soliq yukini optimallashtirish masalalari». i.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2007.) deb yozadi. Bu ta’rifda to‘langan yoki hisoblangan soliqlar, qaysi qo‘shilgan qiymatga, qaysi davr uchun kabi masalalar ochib ko‘rsatilmagan. Ta’rifning mazmunidan hisoblangan ammo, to‘lanmagan soliq qarzdorligi soliq yukini hosil qilmaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmatov A.Q. *Soliq huquqi asoslari.* – Toshkent: “Yuridik adabiyot”, 2019. – 256 b.

2. Ergashev D.T. *Soliq qonunchiligi va soliq munosabatlari.* – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2020. – 312 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – Toshkent, 2023.

4. Qodirov S.S. *Soliq tizimining nazariyasi va amaliyoti.* – Toshkent: “Moliyaviy akademiya”, 2018. – 284 b.

5. Abduvaliyev M.B. *Soliq huquqining asosiy tushunchalari.* – Toshkent: “Huquq”, 2021. – 198 b.